

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLİYAVIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Eshquvatov Azizjon Zoxid o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy investitsiyalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Tadqiqotda moliyaviy investitsiyalar rentabelligi va aksiyadorlarning umumiy daromadlilik ko'rsatkichi (TSR) baholandi. "Biokimyo" AJ misolida dividend siyosati va aksiyalar daromadliliği o'rganildi. Tahlil natijalari aksiyadorlar daromadliliği asosan dividend to'lovlariga bog'liq bo'lganini ko'rsatdi. Moliyaviy investitsiyalarni baholashda korxona va investor manfaatlarini birgalikda hisobga olish samarali investitsion qarorlar qabul qilishga xizmat qilgani aniqlandi.

Kalit so'zlar: moliyaviy investitsiyalar, aksiyadorlik jamiyati, TSR, dividend, rentabellik, investitsion samaradorlik.

Аннотация. В данном исследовании был проведён анализ показателей эффективности финансовых инвестиций в акционерных обществах. Были рассмотрены рентабельность финансовых инвестиций и показатель общей доходности акционеров (TSR). На примере АО «Биокимё» изучены дивидендная политика и доходность акций. Результаты анализа показали, что уровень доходности акционеров в основном формировался за счёт дивидендных выплат. Установлено, что комплексная оценка интересов предприятия и инвесторов способствовала принятию более эффективных инвестиционных решений.

Ключевые слова: финансовые инвестиции, акционерное общество, TSR, дивиденды, рентабельность, инвестиционная эффективность.

Abstract. This study analyzed indicators reflecting the efficiency of financial investments in joint-stock companies. The research evaluated financial investment profitability and Total Shareholder Return (TSR). Using Biokimyo JSC as a case study, dividend policy and shareholder returns were examined. The findings showed that shareholder profitability was mainly generated through dividend payments. The study determined that considering both corporate and investor interests together improved the assessment of investment performance and supported more effective investment decision-making processes.

Keywords: financial investments, joint-stock company, TSR, dividends, profitability, investment efficiency.

Asosiy qism. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida moliyaviy investitsiyalarning ahamiyatini yanada oshirmoqda[1];[2];[3]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy investitsiyalar korxonalarning bo'sh pul mablag'larini samarali joylashtirish,

qo'shimcha daromad olish, investitsion risklarni diversifikatsiya qilish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi[6].

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy investitsiyalar samaradorligini baholash korxonaning investitsion siyosati natijadorligini aniqlash, kapitaldan foydalanish darajasini baholash hamda investorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[2]. Shu sababli moliyaviy investitsiyalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni takomillashtirish va ularni amaliyotda qo'llash masalalari iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalar samaradorligini baholashda rentabellik, daromadlilik, aksiyadorlarning umumiy daromadlilik darajasi (TSR), investitsiya portfeli samaradorligi hamda moliyaviy investitsiyalarning aktivlar tarkibidagi ulushi kabi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini, investitsion jozibadorligini hamda aksiyadorlar uchun yaratilayotgan iqtisodiy manfaatlar darajasini aniqlash imkonini beradi.

“Biokimyo” AJda moliyaviy investitsiyalar samaradorligini baholashda ikki xil yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Birinchi yondashuv korxona nuqtai nazaridan moliyaviy investitsiyalar rentabelligini aniqlashga qaratiladi. Bunda jamiyat balansidagi moliyaviy investitsiyalar hajmi va ulardan olingan daromadlar o'zaro solishtiriladi[5]. Ushbu yondashuv quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$MIR = MID / JMI \times 100$$

Bu yerda, MIR - moliyaviy investitsiyalar rentabelligi, MID - moliyaviy investitsiyalardan olingan daromad, JMI - jami moliyaviy investitsiyalar. Mazkur ko'rsatkich korxonaning moliyaviy aktivlarga yo'naltirgan mablag'lari qanchalik daromad keltirayotganini baholash imkonini beradi.

Ikkinchi yondashuv esa aksiyador yoki investor nuqtai nazaridan baholashga asoslanadi. Bunda “Biokimyo” AJ aksiyalariga investitsiya kiritgan investorning dividend daromadi va aksiya bahosidagi o'zgarishlar hisobiga olgan umumiy daromadlilik aniqlanadi. Bu yondashuv xalqaro amaliyotda TSR - Total Shareholder Return, ya'ni aksiyadorlarning umumiy daromadlilik sifatida qo'llaniladi. Uning formulasi quyidagicha:

$$TSR = \frac{((AKN - ABN) + D)}{ABN} \times 100$$

Bu yerda,

ABN - aksiya bahosi yil boshida, AKN - aksiya bahosi yil oxirida, D - yil davomida bir aksiyaga hisoblangan dividend.

“Biokimyo” AJ misolida TSR yondashuvini qo'llashning ahamiyati shundaki, u jamiyat aksiyalarining investorlar uchun qanchalik daromadli bo'lganini aniqlash imkonini beradi. Agar moliyaviy investitsiyalar rentabelligi korxonaning o'z moliyaviy investitsiyalaridan olgan daromadini ko'rsatsa, TSR yondashuvi

aksiyadorning jamiyat aksiyalariga kiritgan mablag'i bo'yicha real daromadlilik darajasini baholaydi. Shu sababli ushbu ikki yondashuv bir-birini to'ldiradi: birinchisi korxonaning investitsion samaradorligini, ikkinchisi esa aksiyadorlar manfaatlari va investitsion jozibadorlikni ifodalaydi.

Shu nuqtai nazardan, "Biokimyo" AJda TSR yondashuvini qo'llash jamiyat aksiyalarining dividend siyosati, bozor qiymati, aksiyadorlar uchun yaratilayotgan daromad va kapital bozoridagi investitsion jozibadorligini baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega[3]. Mazkur yondashuv moliyaviy investitsiyalar samaradorligini faqat korxona ichki ko'rsatkichlari bilan emas, balki investorlar manfaatlari va aksiyalar daromadliliigi bilan bog'liq holda kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval

"Biokimyo" AJ aksiyalariga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha aksiyadorlarning umumiy daromadlilik ko'rsatkichi[4]

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Aksiya bahosi yil boshida - ABN, so'm	3 350	3 350	3 350	3 350	3 350
Aksiya bahosi yil oxirida - AKN, so'm	3 350	3 350	3 350	3 350	3 350
Bir aksiyaga hisoblangan dividend - D, so'm	6 140	1 500	1 600	2 400	1 000
TSR - aksiyadorlarning umumiy daromadlilik ko'rsatkichi, %	183,3	44,8	47,8	71,6	29,9

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda "Biokimyo" AJ aksiyalariga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha "aksiyadorlarning umumiy daromadlilik darajasi" (TSR) ko'rsatkichi 2019-2023-yillar kesimida aks ettirilgan. Hisob-kitobda aksiya bahosining yil boshidagi va yil oxiridagi qiymati hamda bir aksiyaga hisoblangan dividend miqdori asos qilib olingan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, tahlil davrida aksiya bahosi 3350 so'm darajasida o'zgarmagan. Shu sababli TSR ko'rsatkichining shakllanishida asosiy omil dividend daromatlari bo'lgan. Eng yuqori daromadlilik 2021-yilda 183,3 foizni tashkil etgan bo'lib, bu bir aksiyaga 6 140 so'm dividend hisoblangani bilan izohlanadi. 2020-2021-yillarda TSR mos ravishda 44,8 foiz va 47,8 foizni tashkil etgan. 2022-yilda dividend miqdorining 2 400 so'mga oshishi natijasida aksiyadorlarning umumiy daromadlilik ko'rsatkichi 71,6 foizga yetgan. 2023-yilda esa dividend miqdori 1 000 so'mga pasaygani sababli TSR 29,9 foizgacha kamaygan. "Biokimyo" AJ aksiyalarining aksiyadorlar uchun daromadliliigi asosan dividend siyosati bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Aksiya bahosi o'zgarmagan sharoitda TSR darajasidagi tebranishlar dividend miqdorining yillar bo'yicha o'zgarishi bilan bevosita izohlanadi[4].

"O'zmetkombinat" AJda moliyaviy investitsiyalar samaradorligini baholash korxonaning moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi, investitsion faolligi va moliyaviy barqarorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida moliyaviy investitsiyalar nafaqat qo'shimcha daromad olish manbai, balki aktivlar tarkibini diversifikatsiya qilish, kapitaldan samarali

foydalanish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy investitsiyalarni baholashda kompleks yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Moliyaviy investitsiyalar korxonalarning mavjud kapitalini samarali joylashtirish, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Tahlil jarayonida moliyaviy investitsiyalar rentabelligi korxonaning investitsiya faoliyatidan olinayotgan natijalarni ifodalashi, aksiyadorlarning umumiy daromadlilik ko'rsatkichi (TSR) esa investorlar uchun yaratilayotgan iqtisodiy manfaatlar darajasini aks ettirishi aniqlandi. Shu sababli mazkur ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish investitsion faoliyat natijalarini yanada to'liq baholash imkonini beradi.

“Biokimyo” AJ bo'yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblar aksiyadorlar daromadlilikida dividend to'lovlari muhim o'rin tutganini ko'rsatdi. Dividend hajmidagi o'zgarishlar investorlar daromadlilik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu holat korxonalarda samarali dividend siyosatini yuritish investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Moliyaviy investitsiyalarni boshqarishda risklarni baholash, investitsiya yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, kapital bozoridagi imkoniyatlardan oqilona foydalanish va korporativ boshqaruv standartlarini rivojlantirish korxonalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishi asoslandi. Natijada moliyaviy investitsiyalar samaradorligini muntazam tahlil qilib borish aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligi va investitsion salohiyatini oshirishning muhim shartlaridan biri ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabr O'RQ-598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4664142>

2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-may O'RQ-370-son “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-2382409>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kapital bozorini rivojlantirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishga oid farmon va qarorlari.

4. “O'zmetkombinat” AJning 2018-2023-yillardagi yillik moliyaviy hisobotlari.

5. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. - New York: McGraw-Hill Education, 2022.

6. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. - Boston: Cengage Learning, 2021.